

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## O'RXON PAMUQ ROMANLARIDA POSTMODERNIZM UNSURLARI

*Dilbarxon Asadova**O'qituvchi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** O'rxon Pamuk, postmodern roman, motiv, roviylar, polifoniya, dekonstruktsiya, o'yin hodisasi, parodiya, pastish, intertekstuallik, metafiksatsiya.

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda zamonaviy dunyo adabiyoti, xususan, turkiy adabiyot vakillarining ijodi tadqiq etib kelinmoqda. Bu an'anani davom ettirgan holda mazkur maqolada turkiy xalqlar adabiyotida birinchi bo'lib adabiyot bo'yicha Nobel mukofotini qo'lga kiritgan O'rxon Pamuk ijodidagi postmodernizmning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandik. Turk postmodern adabiyoti deganda old qatorlarda tilga olinadigan yozuvchi O'rxon Pamuk ijodining katta qismini romanlar tashkil qiladi. O'rxon Pamuk o'zining romanlarida eng ko'p foydalanadigan postmodern elementlari bu intertekstuallik va metafiksatsiya hodisalari hisoblanadi. Matn o'zidan avvalgi manbalardan oziqlanadi, uni qayta ishlash jarayonida tayyor motivni yangi badiiy olamga ko'chirish mumkin, degan qarash Pamukning o'ziga xos ijodiy tamoyilidir. Bu yondashuv turk adabiyotiga O'rxon Pamuk bilan birga kirib kelgan.

Shuningdek, ushbu maqolada O'rxon Pamukning "Sassiz uy", "Oq qal'a", "Qora kitob", "Mening ismim qirmizi" va boshqa romanlari orqali postmodern roman xususida ilmiy xulosalar umumlashtirilgan. O'rxon Pamuk ijodiy tamoyillarini belgilashda postmodern roman elementlari va janr xususiyatlari muhim ahamiyatga ega ekani qiyosiy-tahliliy usullar yordamida o'rganilgan. Postmodern romanga doir ko'rib chiqilgan nazariy qonuniyatlar O'rxon Pamuk ijodiga tatbiq etilgan.

Mazkur maqola orqali O'rxon Pamuk ijodining o'ziga xos jihatlari, g'oyaviy-badiiy qarashlari, u yaratgan badiiy olamning estetikasi, Pamukning postmodern romanchilik rivojida tutgan o'rni kabi masalalar tadqiq etildi. O'zbek kitobxonlari O'rxon

Pamuq ijodi bilan tanishishi kerak. Uning romanlaridagi postmodern elementlari, ijodining o'ziga xos jihatlari o'zbek adabiyotiga ham tatbiq etilishi, bu esa xuddi Pamuq kabi Sharq va G'arb adabiy an'analari sintez qilgan holda yangi zamonaviy o'zbek nasrining takomiliga sezilarli turtki bo'ladi. Postmodernizm yo'nalishining asosiy tamoyillari, turk postmodern adabiyotining yetakchi xususiyatlari va O'rxon Pamuq romanlaridagi postmodernizm elementlarining qo'llanilishi haqida yaxlit va tizimli ilmiy-nazariy qarashlar shakllantirilgan.

## ELEMENTS OF POSTMODERNISM IN ORKHAN PUMUQ'S NOVELS

*Dilbarkhan Asadova*

*Teacher,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Orkhan Pamuk, postmodern novel, motive, narrators, polyphony, deconstruction, game event, parody, pastiche, intertextuality, metafiction.

**Abstract:** In recent years, modern world literature, in particular, works of representatives of Turkish literature have been researched. Continuing this tradition, in this article we studied the specific features of postmodernism in the works of Orkhan Pamuk, who was the first in the literature of the Turkic peoples to win the Nobel Prize for Literature. Most of the works of the writer Orkhan Pamuk, who is mentioned in the front lines of Turkish postmodern literature, are novels. The postmodern elements that Orkhan Pamuk uses most in his novels are the phenomena of intertextuality and metafiction. The original creative principle of Pamuk is the view that the text is nourished by the previous sources, and in the process of its processing, the ready motif can be transferred to a new artistic world. This approach entered Turkish literature together with Orkhan Pamuk.

Also, this article summarizes scientific conclusions about the postmodern novel through Orkhan Pamuk's novels "Silent House", "The White Castle", "The Black Book", "My Name is Red" and other novels. It was studied with the help of comparative and analytical methods that the elements of the postmodern novel and the features of the genre are important in determining the creative principles of Orkhan Pamuk. The considered theoretical principles of the postmodern novel were applied to Orkhan Pamuk's work.

Through this article, specific aspects of Orkhan Pamuk's work, ideological and artistic views, the aesthetics of the artistic world created by him, and the role of Pamuk in the development of postmodern novels were studied. The Uzbek reader should familiarize himself with the work of Orkhan Pamuk. Postmodern elements in his novels, specific aspects of his work are also applied to Uzbek literature, which, like Pamuk, is a significant impetus for the improvement of new modern Uzbek prose, synthesizing Eastern and Western literary traditions. A

comprehensive and systematic scientific-theoretical view was formed about the main principles of postmodernism direction, the leading features of Turkish postmodern literature, and the use of postmodernism elements in Orkhan Pamuk's novels.

## ЭЛЕМЕНТЫ ПОСТМОДЕРНИЗМА В РОМАНАХ ОРХАНА ПУМУХА

*Дилбархан Асадова*

*Учитель,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Орхан Памук, постмодернистский роман, мотив, повествователи, полифония, деконструкция, игровое событие, пародия, стилизация, интертекстуальность, метафикция.

**Аннотация:** В последние годы исследуется современная мировая литература, в частности, произведения представителей турецкой литературы. Продолжая эту традицию, в данной статье мы изучили специфические черты постмодернизма в творчестве Орхана Памука, первого в литературе тюркских народов лауреата Нобелевской премии по литературе. Большинство произведений писателя Орхана Памука, который упоминается в первых рядах турецкой постмодернистской литературы, — это романы. Постмодернистские элементы, которые Орхан Памук больше всего использует в своих романах, — это явления интертекстуальности и метафикции. Исходным творческим принципом Памука является представление о том, что текст питается предшествующими источниками, а в процессе его обработки готовый мотив может быть перенесен в новый художественный мир. Этот подход вошел в турецкую литературу вместе с Орханом Памуком.

Также в данной статье обобщаются научные выводы о постмодернистском романе на примере романов Орхана Памука «Дом Тишины», «Белая Крепость», «Чёрная Книга», «Меня Зовут Красный» и других романов. С помощью сравнительного и аналитического методов изучено, что элементы постмодернистского романа и особенности жанра важны в определении творческих принципов Орхана Памука. Рассмотренные теоретические принципы постмодернистского романа были применены к творчеству Орхана Памука.

В рамках данной статьи были изучены особенности творчества Орхана Памука, идейно-художественные взгляды, эстетика созданного им художественного мира, роль Памука в развитии постмодернистского романа.

Ўзбекскому читателю следует ознакомиться с творчеством Орхана Памука. Постмодернистские элементы в его романах, специфические аспекты его творчества применяются и к узбекской литературе, что, как и Памука, является значительным толчком к совершенствованию новой современной узбекской прозы, синтезирующей восточные и западные литературные традиции. Сформирован комплексный и системный научно-теоретический взгляд на основные принципы направления постмодернизма, ведущие черты турецкой постмодернистской литературы, использование элементов постмодернизма в романах Орхана Памука.

## KIRISH

Oxirgi yarim asrda postmodernizm barcha fan sohalari qatori badiiy adabiyotning ham kun tartibidan joy olgan. Postmodern roman atamasi ilk bor Amerikada adabiyotshunos Ijob Hassan tomonidan qo'llanildi. Postmodernizm haqida Muhammadjon Xolbekovning "XX asr modern adabiyoti manzaralari"<sup>1</sup> va "XX asr jahon adabiyoti manzaralari",<sup>2</sup> Tilavoldi Jo'rayevning "Ong oqimi. Modern",<sup>3</sup> Dilmurod Quronov hamda boshqa mualliflarning "Adabiyotshunoslik lug'ati"<sup>4</sup> nazariy kitoblarida, Qozoqboy Yo'ldoshevning "Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar"<sup>5</sup> maqolasida to'xtalib o'tilgan. Yozuvchi Nazar Eshonqulning adabiy-falsafiy mulohazalari qayd etilgan "Mendan mengacha",<sup>6</sup> "Ijod falsafasi",<sup>7</sup> "Kitob bandasi"<sup>8</sup> kitoblarida modernizm va postmodernizm haqida muayyan qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Ulug'bek Hamdamovning "Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm"<sup>9</sup> kitobida jahon va o'zbek adabiyotida o'zini yetarlicha namoyon qilib kelayotgan yangi adabiy oqimlar – modernizm, postmodernizm va ularning o'ziga xos muammolari yoritilgan. Lekin postmodernizm haqidagi nazariy xulosalar hali yetarlicha tadqiq etilmagan. 1960-yillarning boshida postmodern adabiyotning strukturasi va tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lsa, 90-yillarning boshlariga kelib turk adabiyotida keng ko'lamli munozaralar boshlandi. Turk postmodern mutafakkirlari va yozuvchilari san'atda erkinlik va demokratlashtirish talabi bilan chiqishga urinishdi. 1980-yildan keyin spektakl, kinoya va fantastik elementlar bilan to'ldirilgan asarlar o'sha davr adabiy muhitining ko'ngilochar maydoniga aylandi. 1950-yildan keyin sanog'i ko'paygan qishloq romanlari, didaktik romanlar o'z o'rmini yanada murakkab asarlarga bo'shatib berdi. Turk postmodern yozuvchilari yangi xayoliy dunyo yaratishda faollashishdi. Ular avvalgi davrlarga oid matnlar olamidan motiv va hikoya qilish texnikasini o'zlashtirib, iqtiboslar va havolalar keltira boshlashdi, parodiya va pastishlar ko'paydi.

<sup>1</sup> Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Toshkent: Mumtoz so'z, 2014.

<sup>2</sup> Xolbekov M. XX asr jahon adabiyoti manzaralari. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2020.

<sup>3</sup> Jo'raev T. Ong oqimi. Modern. - Farg'ona: Farg'ona, 2009.

<sup>4</sup> Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. -Toshkent: Akademnashr, 2010.

<sup>5</sup> Qozoqboy Yo'ldosh. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar. "Jahon adabiyoti", 2015 yil, 10-son

<sup>6</sup> Eshonqul N. «Men»dan mengacha. - Toshkent: Akademnashr, 2014.

<sup>7</sup> Nazar Eshonqul. "Ijod falsafasi" ("Mendan mengacha"). T.: Akademnashr. 2018.

<sup>8</sup> Nazar Eshonqul. Kitob bandasi. – Toshkent: Akademnashr, 2021.

<sup>9</sup> Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. O'quv qo'llanma/ Ulug'bek Hamdam. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

Postmodern adabiyoti noan'aviy ijtimoiy hayot adabiyoti sifatida adabiyotda paydo bo'ldi. Postmodernizm nazariyotchilari yangi yo'nalishni modernizmga qarshi harakat o'laroq baholashsa-da, u o'zining asosiy xususiyatlarini modern adabiyotdan olgan. Metafiksiatsiya darajasiga chiqadigan o'yin hodisasi, shakl bilan bog'liq eksperimentlar va hikoya qilish usullarining xilma-xilligi modern romanning asosiy elementlari hisoblanadi. Bu yo'nalish yozuvchi uchun adabiy kengliklarda erkinlik, kitobxonlar ichida ommaboplikni ko'zlagan. Postmodernizm yangi poetik tamoyillar va yangi estetik tendentsiyalar yaratishni da'vo qilmaydi. Postmodernistlar nazdida dunyoda yangi bir matn yo'q, barcha matnlar o'zidan avvalgi matnlardan olingan bo'ladi, ularni takrorlaydi yoki qayta yaratadi.

Turk postmodern adabiyotining yetakchi vakillaridan biri bo'lmish O'rxon Pamuk 1952-yil 7-iyunda Istanbul shahrida tavallud topgan. Yozuvchi bolaligi va yoshlik yillarini Istanbulning Nishontoshi tumanida o'tkazgan. Turli madaniyatlar, tillar va odamlar birga yashaydigan kosmopolit kayfiyatdagi bu joy Pamukning ijodiga sezilarli tarzda ta'sir ko'rsatgan. Istanbul texnika universiteti muhandislik-arxitektura fakulteti arxitektura bo'limida o'qishni boshlagan Pamuk uch yillik tahsildan so'ng bu yerni tashlab ketdi. U Istanbul universiteti Jurnalistika fakultetida o'qishni davom ettirgan. Pamuk muqim biror ishda ishlamaydi, deyarli butun vaqtini yangi asar uchun material izlash va yozish jarayoniga bag'ishlaydi. 1985-1988-yillarda Yava universitetida dunyo yozuvchilarining AQSh hayotini o'rganishi va kitob yoza oladigan salohiyatga erishishlariga imkon beruvchi maxsus kursni bitirdi. Bu tahsil jarayoni uning dunyoqarashi va ijodiy tafakkurini o'zgartirib yubordi. Ijodiy faoliyati davomida juda ko'plab adabiy mukofotlarni qo'lga kiritdi. Asarlari katta tirajlarda nashrdan chiqdi. Bu asarlar unga shon-shuhrat olib kelishi bilan birga qattiq tanqidga uchragan vaqtlari ham ko'p bo'ldi.

O'rxon Pamuk eng ko'p foydalanadigan postmodern elementlari bu intertekstuallik va metafiksiatsiya hodisalaridir. Matn o'zidan avvalgi manbalardan oziqlanadi, uni qayta ishlash jarayonida tayyor motivni yangi badiiy olamga ko'chirish mumkin, degan qarash Pamukning o'ziga xos ijodiy tamoyilidir. Bu yondashuv turk adabiyotiga O'rxon Pamuk bilan birga kirib keldi. Postmodern romanlarning o'quvchi uchun qiyinchilik tug'diradigan tomoni matn osti matndagi kodlarni o'qish uchun yashirin havolalarni bilish muhim hisoblanadi. Pamukning "Oq qal'a"<sup>10</sup> va "Qora kitob"<sup>11</sup> romanlari shu uslubda yozilgan. Turli xil matnlardan foydalanilgani, ularga havolalar berilgani va parchalar birlashtirilgani sababli "Qora kitob" romanini kollaj-roman sifatida baholash o'rinlidir.

Pamukning yozuvchilik faoliyati 1974-yilda boshlangan. Mehmet Ero'g'li bilan hamkorlikda yozgan "Zulmat va yorug'lik" nomi bilan bosilib chiqqan ilk romani "Milliy romanlar" tanlovida birinchi o'ringa loyiq ko'rildi. Keyinchalik bu roman 1982-yilda kengaytirilib va qayta ishlanib, "**Javdat Bey va o'g'illari**"<sup>12</sup> nomi bilan chop etiladi. Asar jahon adabiyotining asosiy mavzularidan biri bo'lmish oila hayoti tasvirlangan romanlar turkumiga kirib, savdogarlar oilasida yuz bergan voqealar haqida hikoya qiladi. Mazkur roman Turkiyadagi O'rxon Kamol mukofotiga loyiq ko'riladi. Pamukning asarlari birinma-ketin mukofot qo'lga kiritishda davom etarkan, 1984-yilda ikkinchi asari bo'lmish "**Sassiz uy**" romani "Modern roman" mukofotini yutdi. Ushbu romanning fransuz tilida chop qilingani ortidan Pamuk Fransiyaning "Yevropa kashfi" mukofotiga sazovor bo'ldi. Tarixiy mavzudagi "**Oq qal'a**" romani AQShda Xorijiy tildagi eng yaxshi badiiy asar mukofotini qo'lga kiritdi. Pamuk 2002 yil

<sup>10</sup> Orhan Pamuk, Beyaz Kale, Yapı Kredi Yayınları, İstanbul, 2013.

<sup>11</sup> Orhan Pamuk, Kara Kitap, Yapı Kredi Yayınları, İstanbul, 2016.

<sup>12</sup> Orhan Pamuk, Cevdet Bey ve Oğulları, İletişim Yayınları, İstanbul, 1995.

nashr qilingan “Qor” romanini “*mening birinchi va oxirgi siyosiy romanim*”<sup>13</sup> deya ta’riflagan. Ushbu roman 2004-yil ingliz tiliga tarjima qilinib, muallifga xalqaro darajada shon-shuhrat olib keladi. O’sha yili “Qora kitob” romani “Yilning eng yaxshi 10 kitobidan biri” sifatida tan olingan.

Pamuqning xalqaro yozuvchi sifatida mavqei yanada oshdi. Uning har bir asari chet tillariga o’g’irilib, dunyo kitobxonlarining qo’liga yetib bordi. 1998-yilda nashr etilgan “Mening ismim qirmizi”<sup>14</sup> asari 24 tilga tarjima qilindi va 2003-yilda Irlandiyaning Xalqaro Dublin adabiyot mukofotida bosh sovringa ega bo’ldi.<sup>15</sup> Mavzu jihatidan tarixiy asarlar qatoriga qo’shish mumkin bo’lgan “Mening ismim qirmizi” romani o’quvchini o’z kechinmalari bilan mushtarak bir o’tmish guvohiga aylantirgan, voqelikning izchil va nomuvofiqligi, ishonarli va chalg’ituvchanligi, hayratlanarli va hayajonli sahnalarga boyligi asarga bo’lgan qiziqishni oshirib bergan. “Mening ismim qirmizi” asarini badiiy adabiyot nuqtai nazaridan keng qamrovli roman deyish mantiqan to’g’ri bo’ladi. Pamuq boshqa asarlari kabi bu asarda ham turli xil voqealar zanjirini bir-biriga bog’liq ravishda rivojlantirib borib, eski motivni qayta ishlash va voqealar rivoji nuqtai nazaridan, postmodern romanga xos detektiv fantastika, san’atdagi Sharq-G’arb to’qnashuvi va melodrama elementlarini mahorat bilan matnga singdirgan. “Mening ismim qirmizi” romanida obrazlilik tizimi Pamuqning boshqa romanlariga qaraganda farqli xususiyatlarga ega. Obrazlar tarkibi kengroq tasvirlanadi, ularda g’ayriinsoniy elementlar ham mavjudligi diqqatni tortadi. U o’zining timsoli bilan rang-barang, boy va ko’plik xarakteriga ega.

O’rxon Pamuq o’zining ilk “Javdat Bey va uning o’g’illari” romani ustida ishlayotgan paytda turk adabiyoti “qishloq realizmi” deb atalgan adabiy oqim ta’sirida edi. Qishloq muhiti tasvirlanadigan, maishiy muammolar ko’tariladigan bu romanlarda yozuvchilar romanning shakliga emas, mazmuniga ahamiyat bergan. Bu romanlarning auditoriyasi katta bo’lgan va ularning adabiy tafakkuri ham qishloq hayoti bilan bog’liq maishiy mavzularga moslashgan edi. Ular uchun yangi badiiy olam, xayolot aralashgan uslub, matn osti matnni o’qish zehniyati murakkablik tug’dirdi. O’sha paytlarda Turkiyadagi iqtisodiy sharoitning og’irligi, xalqning hukumat bilan munosabatlari mustahkam byurokratiyaga asoslanganligi tufayli qishloq mavzusidagi romanlar uchun material ko’payib borayotgandi.

O’tgan asrning 60-yillari oxirida ijod qila boshlagan va ingliz adabiyotining asosiy xususiyatlarini o’zlashtirib olgan Yusuf Atilganning “Yolg’iz odam” nomli ilk romani o’quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinmagan. Keyinchalik 70-yillarning boshida O’g’uz Atayning postmodern uslubni aks ettirgan “Tutqich bermaganlar” romani ham o’z kitobxonini uzoq vaqt kutib qolishiga to’g’ri keldi. Atay qishloq realizmidan uzoqlashib, ichki monologlardan foydalandi va voqelik nuqtasini boshqa o’zanga burib yubordi. O’sha paytda ijobiy sifatni o’zida mujassam etgan “realist” so’zi adabiy qiymat kategoriyasi sifatida qo’llanilgan, an’anaviy-realistik yo’nalishdan chetga chiqqan asarlar “romantikashtirilgan matnlar” deya baholangan va arzimagan asar sifatida ko’rilgan.

O’rxon Pamuq turk adabiy muhitida realizmning hukmronligi va yangi oqimlarning omadsizlik pallalarida adabiyotga kirib keldi. U turk postmodern adabiyotining yetakchilari qatoriga kirdi. Keyinchalik xotiralarida Pamuq shunday eslaydi: “1974-yildan boshlab “Jevdet Bey va o’g’illari”ni yozishni boshladim. O’sha davrda turkiy adabiyotda hukmron bo’lgan roman uslubi va adabiy mafkura qishloq doirasidan chetga chiqmasdi. “Javdat Bey va

<sup>13</sup> Orhan Pamuk, *Saf ve Düşünceli Romancı, İletişim Yayınları, İstanbul, 2011, s.87.*

<sup>14</sup> Orhan Pamuk, *Benim Adım Kırmızı, Yapı Kredi Yayınları, İstanbul, 2019.*

<sup>15</sup> Orhan Pamuk, *Saf ve Düşünceli Romancı, İletişim Yayınları, İstanbul, 2011, s.4.*

*o'g'illari"ni yozayotgan edim, adabiyotga unchalik yaqin bo'lmagan bir tanishim "Roman yozyapsiz, lekin qishloq hayotini bilasizmi?" deb so'radi. Uning uchun roman bu qishloqda sodir bo'lgan voqea edi. Qishloq romani turk adabiyotining so'nggi qirq yillik tarixida shunchalik muhim o'rin tutganki, hech bir odam bundan farqli fikrlamasdi. Bu hodisa jahon adabiyoti tarixida ham kam uchraydi. 1930-yillardan 1970-yillargacha bo'lgan davrda Turkiya shaharlashgan bo'lsa ham qishloq haqida o'zgacha tarzda gapiradigan adabiyot va roman uslubining hali hamon hukmronligiga chek qo'yish uchun zarurat paydo bo'lib ulgurandi. Men ilk bor yozishni boshlaganimda bu ishning naqadar og'irligini his qildim".*<sup>16</sup>

Pamuq yozuvchi bo'lishga qaror qilganida yigirma yoshda edi. U hayotidagi muhim burilish pallasida she'riyat va roman o'rtasidagi tanlov oldida qoldi. Ko'p o'tmay, u roman yozishga qaror qildi. Oilasining moddiy ahvoli nisbatan yaxshi bo'lgani unga qo'l keldi. Bu iqtisodiy qulaylik unga kam sonli yozuvchilarga nasib etgan muhitni taqdim etdi. Yillar davomida u o'z romanlarini yaratish uchun zarur bo'lgan materiallarni yig'di, o'qidi, tadqiq qildi va barchasini umumlashtirib yozdi. Birinchi romani "Javdat Bey va o'g'illari"ni yozish uchun olti yil vaqt sarfladi. Bu roman chop etilishi bilan turli tanqidlarga uchragan. Birinchidan, asar mavzusi burjua oilasining sarguzashtlarini o'z ichiga olganligi bo'lsa, ikkinchi asosiy sababi adabiy muhitda hukmron bo'lgan an'anaviy roman tushunchasiga zid kelgani deb hisoblanadi. 1980-yillar turk romanchiligida o'zgarishlar boshlangan davrlar edi. Yusuf Atilgan, Bilge Karasu, O'g'uz Atay kabi mualliflar yangi romaniy tafakkurni tatbiq eta boshlagandi. "Javdat Bey va o'g'illari" romani nashr etilgandan so'ng u avtobiografik xususiyatga ega deya baholandi. Pamuk adabiy ijod tendentsiyalaridan xabardor zamonaviy yozuvchi sifatida roman atrofida bu tanqidlarga qarshi chiqadi. "*Avtobiografiya so'zi nimani anglatishini bilmayman. Muallif yozganlarini qaysidir darajada "o'zi yashab o'tgan" demoqchi bo'lsa, buning o'lchovi qanday bo'ladi? Ba'zi romannavislar o'quvchida uyg'otmoqchi bo'lgan ta'sirga roman shakli bilan emas, balki yozganlarini "yashagan"ligi haqidagi baholarni eshitish orqali erishishga urinadi. Ammo bugungi zamon yozuvchisi o'z romanini boshqa hech jabhaga tushirib bo'lmaydigan bilim bilan yozishi kerakligini tushunadi*",<sup>17</sup> deydi Pamuk romani haqidagi fikrlarga munosabat bildirarkan.

Uning ilk romanidanoq yozayotgan mavzusi doirasida chuqur izlanishi, ko'p mutolaa qilishi va material yig'ishi ko'rindi. O'rxon Pamuk suhbatlaridan birida o'zi haqidagi taqlid va ta'sirlanish to'g'risidagi fikrlarga to'xtalib, ijodiga Ahmet Hamdi Tanpınar ongli ravishda ta'sir qilganini, tarixdan foydalanish va an'ananing og'ir yukini yengib o'tishni undan o'rganganini aytdi. Yana bir yozuvchi Kamol Tohirdan tarixning o'zi ham xuddi roman qahramoni kabi o'z-o'zidan qahramon bo'lishi mumkinligini, O'g'uz Ataydan yangi romanchilik xususiyatlarini o'rganganini alohida e'tirof etadi. Pamuk romanda tarix, inson psixologiyasi va shaklni qadrlaydigan g'arb romanchilariga ham e'tibor qaratganini yashirmaydi. "*Tolstoy, Stendal, Dostoevskiy...* "Javdat Bey va uning o'g'illari"ni yozayotganimda XIX asr romaniga shunchalik bog'lanib qolgan edimki, undan ta'sirlanganimni ham sezmay qoldim. Men Folkner va Virjiniya Vulf kabi zamonaviy Amerika romani tufayli bu ta'sirdan erta qutuldim. Shuni bildimki,

<sup>16</sup> Orhan Pamuk, "60'lardan Bu Yana Romanda Fazla Değişiklik Yok", (Soruşturma Cevabı), Hürriyet Gösteri, Mayıs 1989, s.16-17

<sup>17</sup> "Gelenek ve Yenilik", Konuşmacılar: Enis Batur-Orhan Pamuk, Karşıdan Karşıya Geçerken Sanat, Yapı Kredi Yayınları, İstanbul, 1995.

*romanchilik bu qoidalar dunyosi emas, balki qoidasizlikdir*”,<sup>18</sup> deya qayd etgan. O‘rxon Pamuq bu qisqa nutqida o‘z ijodiy prinsiplarining ustuni bo‘lgan ikki jihatni alohida ta’kidlaydi. Ulardan birinchisi tarixdan foydalanish haqiqati bo‘lsa, ikkinchisi g‘arbcha roman muhitidan qutulish va romanlariga ajnabiy shakl berish tashvishi.

Pamuqning postmodern romanchilik an‘analarini boshlab bergan asari “Sassiz uy”<sup>19</sup> romani hisoblanadi. Ushbu roman 1983-yilda nashr etilgan. “Sassiz uy”dagi voqealar 1980-yil yozida Istanbulga yaqin joylashgan Jennethisor shahrida bo‘lib o‘tadi. Uch aka-uka shu yerda yashovchi buvisinikiga mehmonga kelishadi. Syujetni asr boshidan 1980-yillargacha bo‘lgan vaqtni eslash tartibida qurgan Pamuq roman shaklini ham o‘zgacha tarzda barpo etgan. Romanning asosiy g‘oyasi “yolg‘izlik” muammosini yechishga qaratilgan bo‘lib, butun bir avlod yolg‘izlikning turli darajasidagi taqdirlari kesishmasidan iborat. Asardagi ko‘plab sevgi voqealari umidsizlik, tushkunlik yoki iztirob bilan tugaydigan umumlashmalardan tashkil topgan. Romanda Pamuq yolg‘izlik mavzusini o‘rtaga tashlab, uy ramzi orqali barcha taqdirlarni bir yerga jamlaydi. Hayotdagi omadsizliklar, javobsiz sevgi kabi sabablar tufayli yolg‘izlikka duch keladigan obrazlar o‘ziga xos xarakterlarga ega va ularning ijtimoiy pozitsiyasi masalasi ham asarda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Asarda postmodern romanga xos xususiyatlardan biri roviylarning ko‘pligi va polifoniya kuzatiladi, shu sababli romanda besh nafar roviy qatnashadi. “Sassiz uy” o‘tgan asrning 80-yillaridagi turk yoshlarining ruhiyatini, umumkayfiyatini tadqiq etishga bag‘ishlangan asar deyish mantiqliroq va to‘g‘riroq bo‘ladi. Bu romandagi voqealar ko‘p qirrali tushunchalar qo‘llash orqali besh kishining nuqtai nazaridan taqdim etilgan. Bu badiiy adabiyotda perspektiva texnikasi deyiladi. Ushbu usul “Sassiz uy” romaniga harakat, hayotiylik va dinamika beradi. “Sassiz uy” asari ham mukofotga loyiq deb topildi va O‘rxon Pamuqqa keng o‘quvchilar ommasiga ega bo‘lish imkonini berdi. Bu asari bilan Pamuq romanda tarix motivlaridan foydalanishni boshlaganini hamda shakl bo‘yicha tajribalar o‘tkazganini ko‘ramiz. Yozuvchi 1985-yilda AQShda maxsus yozuvchilar kursida tahsil oladi. Shundan so‘ng yozuvchilik qirralarini yanada o‘tkirlashtirishga va zo‘r berib ijod qilishga kirishadi. O‘sha paytlarda Turkiyada yozuvchilar maktabini tashkil qilishni rejalashtirgan. U Turkiyada yozuvchi bo‘lish uchun olti-etti yil azob chekishga to‘g‘ri kelishini aytgan. “*Agar yaxshi narsa yozgan bo‘lsangiz, u har qanday diplomdan qimmatroqdir*”,<sup>20</sup> deydi Pamuqning o‘zi bu haqida.

Yozuvchining uchinchi romani “Oq qal’a” turk an‘anaviy romani uchun to‘liq isyon ramzidir. 1985-yilda nashr etilgan mazkur roman muallif tomonidan “**novel**” deya atalgan. Ya’ni bu atama uzun hikoya va qisqa romanga nisbatan ishlatiladi. Asar hajmi kichik bo‘lishiga qaramay, syujet matndagi uzoq havolalar atrofiga qurilgan. Pamuq asosan Amerika va ingliz adabiyotida qo‘llaniladigan ushbu uslubni mahalliy ranglar bilan o‘zining uslubi uchun format o‘laroq ishlatgan. Ushbu roman ham chet elda katta qiziqishlarga sabab bo‘ldi. “Oq qal’a” romani “Javdat Bey va o‘g‘illari” hamda “Sassiz uy” romanlaridan so‘ng Pamuqning postmodern roman imkoniyatlaridan keng foydalangan va ijodiy kredosini bir pog‘ona balandga chiqargan asari deyish mumkin. Avvalgi romanlariga qaraganda hajmi nisbatan kichikroq bo‘lgan mazkur roman O‘rxon Pamuqning shuhratini nafaqat Turkiya, balki, butun dunyoga yoyganining asl sabablaridan biri unda Pamuq “Sassiz uy”da ma’lum bir epizodlar doirasida qolgan Sharq-G‘arb ziddiyatini keng miqyosga olib chiqqan. Shuningdek, mazkur asarda Pamuq

<sup>18</sup> Orhan Pamuk, “60’lardan Bu Yana Romanda Fazla Değişiklik Yok”, (Soruşturma Cevabı), Hürriyet Gösteri, Mayıs 1989, s.16-17.

<sup>19</sup> Orhan Pamuk, Sessiz Ev, Yapı Kredi Yayınları, İstanbul, 2016.

<sup>20</sup> Orhan Pamuk, Saf ve Düşünceli Romancı, İletişim Yayınları, İstanbul, 2011, s.56.



postmodern romanga xos bo'lgan roman ichida roman qurish, metafiksatsiya usulidan foydalangan va tarix elementi orqali voqelikni tashqi va ichkiga ajratgan.

O'rxon Pamuqning turk postmodern adabiyotida haqiqiy voqea sifatida tan olingan asari uning to'rtinchi romani bo'lmish **“Qora kitob”** bo'ldi. Kitob nashr etilmasidan avval u haqida gap-so'zlar paydo bo'ldi. Roman 1990-yilda nashr etildi va bu paytda Pamuqning bu asar ustida roppa-rosa besh yil ishlaganidan xabardor tanqidchilar ham, kitobxonlar ham unga qiziqib qolgandi. “Qora kitob” O'rxon Pamuq ta'biri bilan aytganda, “bir turdagi kollajdir”, ya'ni *“tarix parchalari, bugun va kelajak lavhalari qorishib ketgan, bir-biriga notanish bo'lgan turli hikoyalardan iborat romandir”*.<sup>21</sup> Darhaqiqat, “Qora kitob” romani bir-biriga bog'liq bo'lmagan ko'plab hikoyalardan tashkil topgan. Erkin strukturaga asoslangan va adabiy qonun-qoidalar buzib yuborilgan, g'oya bir qarashda yarq etib ko'zga tashlanmaydigan bu roman adabiy jamoatchilik tomonidan uzoq muhokama qilindi. Roman qahramoni advokat G'olib yo'qolib qolgan rafiqasi Ro'yoni qidirar ekan, Istanbulda ayolini topish jarayonida qarindoshi, jurnalist Jalolning maqolalari unga katta yordam bo'ladi. O'rxon Pamuqning g'ayrioddiy tafsilotlarini va uzundan uzoq jumalari o'qib, asarning bosh g'oyasini anglash murakkab jarayondir. Pamuq “Qora kitob”da o'z davrigacha na turk romanchiligi va na chet el adabiyotida uchraydigan shaklni sinab ko'rdi.

“Qora kitob” tanqidlar ostida qolgan bo'lsa-da, turk romanchiligi an'anasida yangi davrni boshlab berdi. Bu o'sha “Ta'qib qilinmaganlar” boshlab bergan adabiy inqilobning kulminatsiyasi bo'ldi. Adabiyotshunos Dr. Tahsin Yujel “Qora kitob” romaniga munosabat bildirib, Pamuqni yomon yozuvchi sifatida tilga oldi, u o'z maqolasida romanning tilini, syujetdagi xayoliy voqelikning zaif tomonlarini tanqid qildi.<sup>22</sup> O'rxon Ko'chak sakson sahifadan iborat tanqidiy maqola yozdi. Ko'plab tanqidlarga uchraganiga qaramay bu roman ham adabiyot, ham romanchilik istiqbolini kun tartibiga olib chiqishda, Turkiyadagi o'quvchilarni yangi adabiy davrga olib kirishda muhim o'rin tutdi. “Qora kitob” romanidagi xayoliy makon, xayoliy obrazlar va xayoliy tasvirlar real hayotning aksi emas, balki muallifning idrok chig'irig'idan o'tgan yangi voqelik sifatida taqdim etilgan. Asar nomidagi qora kitob aynan xayolotga ishora bo'lib, qahramonning o'zini topish jarayonidagi bitiklar umumlashmasi hisoblanadi. Romanda intertekstuallik usulidan o'ta mohirlik bilan foydalanilgan bo'lib, “Qora kitob” boshqa asarlardan iqtibos keltirilgan va o'zga adabiy manbalarga havola beruvchi matnlardan iborat. Bu matnlar Pamuq tomonidan qayta yozilgan va u motivlarning haqqoniyligiga javobgar emasligini bildiradi. Romanda adabiy xayolot va reallik orasidagi qarama-qarshilikdan foydalangan holda “izlash” motivi asosiy g'oya darajasiga chiqqan. “Qora kitob” romanining mazmuni roman qahramonlaridagi “eski va yangi”, “kecha va bugun”, “borliq va yo'qlik” o'rtasidagi ziddiyatlarni o'zida mujassam etgan jamoaviy ongning aksi sifatida namoyon bo'lgan. Jamoaviy ong ijtimoiy ongning yagona shaxsda aks etishi demakdir. Romanda G'olib, Jalol va Ro'yoning obrazini jamlaganda yozuvchining siymosi yarq etib ko'zga tashlanadi. “Unutish” va “eslash” motivlari asarda parallellik hosil qilgan va bu parallellik voqealarning makonu zamonini goh o'tmish, goh bugun bilan bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini bajargan. Pamuqning romanlarida, “Qora kitob”da asosiy o'rganish ob'ekti sifatida olingan “insonning o'zini topishi” masalasi odamlarning o'zligini anglash jarayonida amalga oshirgan barcha xatti-harakatlarini qamrab olgan holda g'arblashuv muammosi bilan birga tahlil qilingan. Pamuq badiiy dunyoni

<sup>21</sup> Orhan Pamuk, *Saf ve Düşünceli Romancı, İletişim Yayınları, İstanbul, 2011, s.140.*

<sup>22</sup> Tahsin Yücel, *Kara Kitap Üzerine, Hürriyet Gösteri – Kasım 1990, s.45-46.*

boshqalarga taqliddan iborat platforma deb biladi. Pamuq har bir asarida avval sinab ko'rmagan kompozitsiyadan, obrazlar olamidani, voqelikni hikoya qilishning yangicha usullaridan foydalandi. Asarlarining zamon va makoni uch o'lchamlilik xususiyatiga egaligi, fikrni tashbeh-metafora orqali berishi, g'oyani matn osti matnda berkitilgan shifrlar bilan yetkazishga urinishi uning postmodern romanlaridagi muhim jihatlar hisoblanadi.

Pamuq "Qora kitob"ning ta'siri susaya boshlagandan so'ng "Yangi hayot"<sup>23</sup> romanini yozishga kirishdi. Roman 1995-yilda nashr etilishidan avval adabiy gazeta va jurnallar ko'plab tanqidchilar ishtirokida Pamuqning hali chiqmagan yangi romani haqida tanqidiy mulohazalarni bosib chiqara boshlashdi. Roman nashr etilganidan ko'p o'tmay, 100 ming tirajda sotilib ketdi. Bu turk romani uchun qisqa vaqt ichida erishilgan eng katta raqam bo'ldi. Juda ko'p sotib olinganiga qaramay, yana tanqidlar boshlandi. Pamuqning "Yangi hayot" romani to'liq Sharq va G'arb madaniyatida yaratilgan adabiy asarlarga havolalar bilan yaratilgan. Hatto romanning nomi ham Dantening "Yangi hayot" romaniga ishoradir. Pamuq mazkur asarda o'quvchiga har tomonlama yopiq uslubni tanlagan bo'lib, matn ostida yashirilgan matn o'quvchini ham asarda ishtirok etishga undaydi. Roman qahramoni Usmon butun asar davomida kitob mutolaa qilish haqida gapiradi. U o'qiyotgan romani o'quvchi qo'lida "Yangi hayot" ekanini anglashi, yuzaki hikoya bilan chalg'ish o'quvchiga hech narsa bermasligini uqtirmoqchi bo'ladi. "Yangi hayot" romani "Oq qal'a"da shakllana boshlagan xayolot mahsulining ancha mukammallashtirilgan varianti bo'lib ko'rindi. "*Qoliplar – stereotiplar dastlab paydo bo'lganda ijobiydir. Ular qaytarilganda, siyqasi chiqadi*".<sup>24</sup> Bu fikrlar Pamuqning ijodiy tamoyillariga muvofiq keladi.

O'rxon Pamuqning romanlari haqida haligacha bahs-munozaralar davom etib kelmoqda. Tadqiqotchi Yildiz Ejevit "Mutolaa" nomli kitobida *O'rxon Pamuqni avangard romannavis, yangi an'analar yo'lboshchisi sifatida ta'riflaydi*.<sup>25</sup> Yozuvchining ayniqsa, "Oq qal'a", "Qora kitob", "Yangi hayot", "Mening ismim qirmizi", "Qor" romanlari postmodern romanning ilg'or namunalari sifatida tilga olinadi. Pamuq bu kitoblari orqali adabiyot turlari orasida yangi bir o'tish davrini boshladi. U o'tmish va bugun, sharq va g'arb, an'ana va modern qarama-qarshiligida katta o'zgarishlarga yo'l ochib, shu ruhdagi asarlarini yozishda davom etadi. Adabiyotshunos Jale Parla O'rxon Pamuq romanlarini tadqiq etarkan, Pamuq turk romanida burilish qilayotgan bir yozuvchi ekanini ta'kidlagan. Uning fikricha, "*Pamuq Sharq-G'arb muammolari bo'yicha estetik maydonda katta mehnat qilgan Ahmet Hamdi Tanpinar va O'g'uz Atay kabi zalvorli yozuvchilardan biri bo'lib, u bu muammolarni madaniy va falsafiy ma'nolari bilan adabiyotga olib kirishda, ayniqsa, "Qora kitob" romanida o'zini namoyon etgan. Bu asar mazkur mavzuni tadqiq etish uchun namunali matn bo'lib qoldi*".<sup>26</sup> Pamuq romanlarining asosiy xususiyatlaridan biri postmodern romanining muhim unsuri bo'lgan ustqurma texnikasini mohirona qo'llashi bilan bog'liq. Bunda asarning mohiyati matn ostiga berkitiladi. Matn ustidagi badiiy olam esa mohiyatga yetaklaydi, o'quvchining voqelikka qiziqishini oshiradi. O'rxon Pamuq asar tili bilan bog'liq o'yinlarni xushlamasa-da, romanlarida polifoniyani kuzatish mumkin. Bunda butun asar bayonini xilma-xil rakursdan qarash orqali boyitadi. Xususan, "Mening ismim qirmizi" romanining har bo'limida yangi bir ifoda tarzi paydo bo'ladi va asarning badiiy qiymatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

<sup>23</sup> Orhan Pamuk, *Yeni Hayat*, Iletisim Yayinlari, Istanbul, 1995.

<sup>24</sup> "Adabiyot – insonni kashf qilish" / To'plam. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2016, 70-bet.

<sup>25</sup> Yildiz Ecevit, Orhan Pamuk'u Okumak, Gerçek Yayınevi, İstanbul 1996, s.22.

<sup>26</sup> Jale Parla, "Orhan Pamuk'un Romanlarında Renklerin Dili". Orhan Pamuk'un Edebi Dünyası. Nüket Esen - Engin Kılıç. İstanbul: İletisim Yayınları, 2008, s.55–76.

Uning keyingi “Miyamda bir g’alatilik”, “Qizil sochli ayol”, “Ma’sumiyat muzeyi” romanlari ham turli adabiy mukofotlarni qo‘lga kiritgan. O‘rxon Pamuq 2002-yilda nashr qildirgan “Qor” romani “Turkiyaning etnik va siyosiy masalalarini tadqiq etuvchi siyosiy roman” sifatida ta’riflangan. Yozuvchi ijodining asosiy mavzulari Sharq va G‘arb, islom va nasroniylik, an’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklardir. Ushbu ziddiyatlarga yechim izlash uning ijodidagi bosh g‘oyadir. Pamuqning deyarli barcha kitoblari Istanbul shahri bilan bevosita bog‘liq. Pamuq faqatgina asarlari bilan mashhur emas. U, shuningdek, Turkiyadagi armanlar genotsidi va kurdarga nisbatan kamsitishlarga qarshi fuqarolik pozitsiyasi bilan ham tanilgan. Yozuvchining munozarali masalalardagi shaxsiy pozitsiyasi uni vatandoshlari orasida bahsli shaxsga aylantirgan. Kimdir uning fuqarolik jasorati va matonatiga qoyil qolsa, kimdir uni vatan xoini deb biladi. 2005-yilda Turkiya hukumati uni sudga bergan. Sababi u 2005-yil fevral oyida Shvetsariyaning “Das Magazin” nashriga bergan intervyusida: *“Turkiyada o‘ttiz ming kurd va bir million arman o‘ldirilgan. Bu haqda hech kim gapirmaydi va bu haqda gapirganim uchun meni yomon ko‘rishadi”*, deydi.<sup>27</sup> Pamuqning so‘zlariga ko‘ra, ushbu intervyu e’lon qilingandan so‘ng u nafrat kampaniyasi ob’ektiga aylangan, shu sababli u Turkiyani tark etishga majbur bo‘lgan, biroq ayblovlar qaramay, ko‘p o‘tmay vataniga qaytib kelgan. Pamuqqa qo‘yilgan ayblovlar xorijda ham reaksiyaga sabab bo‘ldi. Bu jarayonga, avvalo, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qo‘shilishi mumkinligi nuqtai nazaridan qaralib, Turkiyadagi so‘z erkinligi masalasi ko‘tarilgandi. 2005- yil Xalqaro Amnistiya tashkiloti Turkiya hukumatidan Pamuqqa nisbatan ta’qiblarni to‘xtatishni talab qildi. Dunyoga mashhur sakkiz yozuvchi – Xose Saramagu, Gabriyel Garsiya Markes, Gyunter Grass, Umberto Eko, Karlos Fuyentes, Xuan Goytisolo, Jon Apdayk va Mario Vargas Losa Pamuqni qo‘llab-quvvatlovchi bayonot bilan chiqishdi.<sup>28</sup> Pamuq 2006-yilda adabiyot bo‘yicha “Nobel” mukofotini qo‘lga kiritadi. Bu esa unga nisbatan muxolif fikrni yanada kuchaytiradi. 2021-yil O‘rxon Pamuq yana jinoiy javobgarlikka tortildi, bu safar unga “Vabo kechalari” nomli yangi romanida Otaturk va turk bayrog‘ini haqorat qilish ayblovi qo‘yiladi. Pamuq ijodining asosiy o‘q tomiri Sharq-G‘arb madaniyati o‘rtasidagi ziddiyatlar atrofida quriladi. Pamuqning yigirma yoshidan buyon yagona mashg‘uloti roman yozishdir. Uzoq yillik ijodiy faoliyati bilan u turk adabiyotini dunyoga mashhur qildi. O‘rxon Pamuq romanlari o‘ziga xos turk postmodern romani an’anasini yaratish maqsadi ilgari surilgan matnlardir. Pamuq har bir asarida avval sinab ko‘rmagan kompozitsiyadan, obrazlar olamidani, voqelikni hikoya qilishning yangicha usullaridan foydalandi. Asarlarining zamon va makoni uch o‘lchamlilik xususiyatiga egaligi, fikrni tashbeh-metafora orqali berishi, g‘oyani matn osti matnda berkitilgan shifrlar bilan yetkazishga urinishi uning postmodern romanlaridagi muhim jihatlar hisoblanadi.

Pamuqning dastlabki romani bo‘lmish “Javdat Bey va o‘g‘illari” romani an’anaviy uslubda yozilgan bo‘lsa ham, keyingi romanlarida postmodern roman elementlaridan unumli foydalanib, o‘ziga xos romanchilik an’analarini yarata oldi. Xususan, uning “Sassiz uy”, “Oq qal’a”, “Qora kitob” romanlari bu yo‘ldagi dastlabki urinishlari bo‘lsa, “Qor”, “Mening ismim qirmizi”, “Mas’umiyat muzeyi”, “Miyamda bir g’alatilik”, “Qizil sochli ayol” romanlarida o‘z uslubini yanada takomillashtirib bordi. Avvalgi romanlariga qaraganda hajmi nisbatan kichikroq bo‘lgan “Oq qal’a” romani O‘rxon Pamuqning shuhratini nafaqat Turkiya, balki, butun dunyoga yoyganining asl sabablaridan biri unda Pamuq “Sassiz uy”da ma’lum bir epizodlar doirasida

<sup>27</sup> Orhan Pamuk, the Armenian genocide and Turkish nationalism, Swiss magazine Das Magazin, 6 February, 2005

<sup>28</sup> Internet materiallari.

qolgan Sharq-G'arb ziddiyatini keng miqyosga olib chiqqan. Shuningdek, mazkur asarda Pamuq postmodern romanga xos bo'lgan roman ichida roman qurish, metafiksatsiya usulidan foydalangan va tarix elementi orqali voqelikni tashqi va ichkiga ajratgan.

O'rxon Pamuq romanlarida to'rtta asosiy masala diqqat markazida turadi. Bular Sharq-G'arb muammosi, insonning o'zini topishi, ijtimoiy evrilishlar va tarixiy parchani romanga kiritish masalasi. "Sassiz uy" romanidagi Metin va Salahaddin Bey, "Oq qal'a"dagi Xoja, "Mening ismim qirmizi"dagi Enishte afandi obrazlari g'arblashtirish g'oyasini, sharq va g'arb madaniyatlari o'rtasidagi chegaralarni buzish, masofalarni olib tashlash vazifalarini ifoda qiluvchi obrazlar hisoblanadi.

### XULOSA

O'rxon Pamuq ijodining asosiy g'oyasi Sharq-G'arb madaniyati o'rtasidagi ziddiyatlar muammosini yechish hisoblanadi. Yozuvchi ijodining bosh g'oyasini ushlab turgan bu yirik konflikt o'z ichida konservatorlik va liberallik, islom va nasroniylik, qadriyatlar va ommaviy madaniyat kabi yana bir qancha ziddiyatlarni qamrab oladi. Pamuq o'zining uzoq yillik ijodiy faoliyati bilan turk adabiyotini dunyoga mashhur qildi, Nobel mukofotini qo'lga kiritdi. Pamuq badiiy dunyoni boshqalarga taqliddan iborat platforma deb biladi. Yozuvchining asarlaridan ko'ringan muhim bir kuzatuv shundaki, Pamuq asarlarining badiiy dunyoqarashida bir yozuvchi boshqalarga taqlid qilishdan boshlashi, o'z uslubini topgach, boshqa birov unga taqlid qila boshlashi, deyarli har bir inson boshqa odamlardan iborat majmuadir, degan xulosa yotadi. Pamuq o'ziga xoslikni esa boshqalardan yig'ilgan motivlarni yangi bir uslubda sintezlash qobiliyatidir, deb hisoblaydi.

O'rxon Pamuq romanlari o'ziga xos turk postmodern romani an'anasini yaratish maqsadi ilgari surilgan matnlar deyish mumkin. Yozuvchi har bir asarida o'ziga xos strukturadan foydalanadi, asarda o'zidan avvalgi adabiy manbalardan motiv olishdan cho'chimaydi. Eski motivlarni qayta ishlaydi, ulardan o'zining g'oyasini yuzaga chiqarishda, fikrini o'quvchiga yetkazishda mahorat bilan foydalanadi.